

FARG'ONA VODIYSI SHAROITIDA PHYTONOMUS VARIABILIS HBST NING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10051388>

S.Sh. Axmadjonova

Farg'ona davlat universiteti, zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida dotsenti.

Annatasiya

*Bu maqolada beda zararkunandasi, fitonomus (*Phytonomus variabilis*, *Hypera postica*), qo'ng'izining biologiyasiga doir ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada yosh qo'ng'izlarning faqat beda o'simligi bilan oziqlanishi, issiqlik boshlanishi bilan diapauza holatiga o'tishi, yoz oxirida ular qaytadan a'ktiv ovqatlanishi va haroratning pastlashi bilan qishlash joylariga yashirinishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Аннотация

*В этой статье представлена некоторая информация о биологии жука-вредителя люцерны, фитономуса (*Phytonomus variabilis*, *hypera postica*). В статье приводится информация о том, что молодые жуки питаются только растением люцерны, с наступлением тепла переходят в состояние диапаузы, в конце лета снова активно питаются, а при понижении температуры прячутся в места зимовки.*

Abstract

*This article provides some information about the biology of the alfalfa pest beetle, phytonomus (*phytonomus variabilis*, *hypera postica*). The article provides information that young beetles feed only on the alfalfa plant, with the onset of heat they go into diapause, at the end of summer they actively feed again, and when the temperature drops, they hide in wintering places.*

Kalit so'zlar

fitonomus, filcha qo'ng'iz, diapauza, qurt, lichinka, imago, qo'ng'iz.

Kalit so'zlar

fitonomus, filcha qo'ng'iz, diapauza, qurt, lichinka, imago, qo'ng'iz.

Key words

phytonomus, elephant beetle, diapause, worm, larva, imago, beetle.

Hozirgi davrga kelib qishloq xo'jaligi sohalarining rivojlanishi, yerdan unumli foydalanish davr talabidir. Qishloq-ho'jalik ekinlaridan mo'l hosil olish va yetishtirilgan hosilni saqlab qolishdagi asosiy omillardan biri zararkunandalrga qarshi kurashish hisoblanadi.

Beda o`simligi chorva hayvonlari uchun asosiy oziqa o`simliklaridan bo`lib, uni yetishtirishda ashshaddiy zararkunanda tur-Fitonomus (*Phytonomus variabilis* Hbst.) o`simlikka kuchli zarar keltiradi. Bedaning o`ziga xos asosiy va ikkilamchi darajada unga zarar keltiradigan zararkunandalari mavjud. Beda maysalarining ildizlarida bir necha turdagi (*Curculionidae* oilasi, sitona (*Sitona*) avlodiga, mansub) uzunburun, filcha qo`ng`izlar zarar yetkazishi mumkinligini Sh.Xujayev o`z ma`lumotlarida izoxlab o`tadi. (6) yosh qo`ng`izlar beda bargi bilan oziqlanib havo haroratining ko`tarilishi bilan yozgi tinim davriga o`tishligi (3) V. V. Isaichyev tomonidan ham aytib o`tilgan. Xar bir urg`ochi zot 2000 tagacha tuxum qo`yadi. Fitonomusning ko`plab tabiiy kushandalari mavjud. Bularning orasida kanidiya yaydoqchisining (*Canidia exigua* Gsrav.) axamiyati kattaligi to`g`risida V.V. Yaxontov (1962) ta`kidlab o`tgan.

Material va metodik usullar. Tadqiqot eksperimentlari beda o`simligida o`tkazildi. Tadqiqot davomida kuzatish, axtarish usuli (5)dan foydalanildi, namunadagi ekin maydonidan Ph. fornicate turini yig`ish yo`li bilan zararlanish ko`rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotlar bedazorlarda fevral oyining ohrigi dekadasidan oktyabrgacha har 7-10 kunda namunalar yig`ish orqali o`tkazildi. Namunalarni mahsus entomologic idishchalarga yig`ish, Konakov va Onisimovlarning qopchali biotsenometridan foydalanib to`plandi. Qo`ng`izlar zichligi 1m² beda barglarning tahlillari orqali izohlandi.

Ilmiy ish natijalari. Kuzatuv ishlari 2022 yilda Farg`ona viloyatiga qarashli bedazorlar o`rganildi (Mullazoir m.f.y). Yig`ilgan qo`ng`izlar namunalari statistic tahlil etilganda ularning o`rtacha kattaligi 5.8mm ni tashkil etdi, ya`ni terilgan qo`ng`izlar tana uzunligi 5-7mmcha variatsiya qilishi mumkin. Bu turning o`ziga hos hususiyatlaridan biri, ularning, ust, qattiq qanotlari o`rtasidan och rangli hoshiya chiziq o`tgan bo`ladi. Bu tur yetuk qo`ng`iz holatida asosan bedazorda va ekin dala qirg`og`idagi begona o`tlar ostida chirindilar ko`p to`plangan, tuproqning yuza qavatida qishlaydi. Imagolar vodiy hududlarida fevral oyining 20-27 kunlarida havo harorati 12°C gacha ko`tarilgan paytda uyg`onadi. Kuzatilayotgan maydondan esa *Phytonomus variabilis* Hbstning yetuk formalari 5.03 kuni kam harakat holatda topildi, xavo xarorati +16+180C bo`lganda, qishlovdan chiqqan qo`ng`izlarning aktivlashishi kuzatildi. Beda o`simligining o`sa boshlashi bilanoq qo`ng`izlar beda poyalarida harakatlana boshlashadi, ular o`simlik barglarini endi unayotgan qismi bilan oziqlanadi, urg`ochi formalar sersuv, yosh poyalarni xartumchasi bilan teshib, ularning ichiga tuxum qo`yadi. Urg`ochi forma, bir tup beda poyasiga 20–25 ta tuxum qo`yadi. Fitonomus tuxumlari asosan bedaning yumshoq o`sish nuqtasiga, beda poyasining

balandligi 10 – 12 sm ga yetmasdan oldin qo'yadi. Tuhum qo'yib bo'lgach, tirqishni bekitib qo'yadi. Yetuk formalar oziqlanishi beda hosiliga katta zarar yetkazmaydi. Tashqi muhitning qulay sharoitida 15 kunda, yomg'irli kunlar ko'p bo'lsa 20 kunda tuxumdan chiqqan lichinkalar bedapoyalarining yuqori qismiga tomon harakatlanib, barg qo'ltiqlariga hamda poya uchlaridagi kurtaklarni kemirib shikastlaydi. Qurtlarning uzunligi 10 mm gacha yetadi, oyoqlari bo'lmaydi.

Tanasining qorin qismidagi bo'rtmalar yordamida harakatlanadi. Lichinkalar oqimtir-yashil rangli bo'lib, bosh qismining rangi to'q qo'ng'ir. Beda o'simligini o'sishdan to'htab qolishi, ekinzorda fitonomus lichinkalarning ko'payib ketganidan darak beradi. Qurtlar kattalashgani sari ularning zarari kuchayib boradi, lichinkalar barg qo'ltiqlaridan va uchki kurtaklardan barglarga o'tib, barglar bilan oziqlanadi, bargning faqat deyarli etini kemiradi, barg tomirlariga tegmaydi, natijada to'rsimon barglar hosil bo'ladi. Beda barglari qoramtir-qo'ng'ir rangga kirib, uzoqdan qaralganda qurigan bedazor ko'rinishida bo'ladi. Lichinkalar 4-hafta davomida bedazorda oziqlanib, beda barglari va beda gullarida pilla o'rab g'umbakka aylanadi. Fitonomus lichinkalari faqat beda bilan oziqlanadi. Mart-may oyida bedazorlarda yetuk va qurtlik formalarni birgalikda uchratish mumkin. Kuzatilgan maydonlarda lichinkalar zichligi iyun oyi o'rtalarigacha ortib borgan. Yetuk zotlar iyun oyining boshlarida lichinkalar oy oxriga kelib zichligi pastlaydi, lekin ularning zarari kuchayadi, chunki qurtlar oziqlanishi jadallashadi. Zararkunandalar suvsiz qolgan ekinni kuchli zararlaydi. G'umbakdan chiqqan yosh qo'ng'izlar birmuncha vaqt bedada oziqlanib, so'ngra havo harorati +250Cdan yuqori bo'lganda, bedazor yon qismlarida joylashgan bog'larda to'kilgan barglar tagida, ekin dalalar yonidagi yovvoyi o'tlarning salqin joylariga yashirinib yozgi tinim davriga kiradi. Qo'ng'izlarning ko'pchiligi o'zlari oziqlangan dalalar yaqinidagi joylarda diapauza holatiga o'tadi. Avgust oylariga kelib, havo salqinlashganda yosh qo'ng'izlar tinim davridan uyg'onib yana beda o'simligi bilan oziqlana boshlaydi. Bedazorning bo'lmasligi, beda hosilini o'rib olinganligi, qo'ng'izlarining ikkilamchi oziqa ya'ni boshqa o'simliklarning yosh maysalari bilan oziqlanishini kuzatish mumkin. Kuzda, havo harorati 10-110C bo'lganda yosh unib chiqqan beda o'simligining ostki qismidagi to'shamaga joylashib qishki uyquga kiradi.

Xulosa: Ushbu tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki Ph.fornicata. bedazorlarda keng tarqalgan tur hisoblanadi. Barg qini chuqur, tez o'suvchan, sovuqqa nisbatan chidamsiz, barg epidermis yupqa, tuklanishi kam navlarda bu tur kuchli zarar keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. V.V. Yaxontov “O’rta Osiyo qishloq xo’jaligi o’simliklari zararkunandalari”.- Toshkent: O’rta va Oliy maktab , 1962. - 693 b.
2. R.Ochilov va boshqalar “O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligida o’simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o’tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defolyantlar hamda o’simliklarning o’stirishni boshqaruvchi vositalar” RO’YXATI . Toshkent 2016
3. Исаичев В.В. // Ломоносов – Манизер. – М. : Большая российская энциклопедия, 2011. – С. 125.
4. Г.Е.Осмоловский, Н.В.Бондаренко. Энтомология. Ленинград, “Колос” Ленинградское Отделение, 143-164. 1980 Г.
- 5.М.Т. Arslonov, Sh.K. Aliyev, va boshq. Qishloq xo’jalik ekinlarining zararkunandalari, kasalliklari va ularni xisoblash xamda tarqalishini bashorat qilish.Toshkent - «Fan va texnologiya» – 2018.
6. Sh.T. Xujayev.Umumiy va qishloq xo’jalik entomologiyasi xamda uyg’unlashgan ximoya qilish tizimining asoslari /Toshkent : Yangi Nashr Nashriyoti, 2019. - 376 b.